# INGLIZ TILIDAGI SHART MAYLINI O‘ZBEK MAKTABLARIDA O‘QITISH METODIKASI

**Umarova Munavvar Nurmuhammadovna**
*Andijon davlat chet tillari instituti,*
*Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi*

**Anatatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi ingliz va o‘zbek tillarida shart maylining qiyosiy tahlili usullardan foydalanish komponentlari haqida o‘z mulohazalarini bayon qilishga harakat qilgan. Bunda muallifning diqqat markazida ingliz va o‘zbek tillarida shart maylining qiyosiy tahlili asosiy tadqiqot materiali sifatida o‘rganilgan. Maqolani tayyorlash jarayonida muallif ingliz va o‘zbek tilshunoslarining qarashlariga tanqidiy yondoshgan va o‘z mulohazalarini dadil bayon qilgan. Maqola ingliz va o‘zbek tili leksikologiyasini o‘rganuvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.*

**Kalit so‘zlar:** *shartmayli, leksikologiya, ingliztili, kesim, ega, buyruqmayli, suffikslar, sub’yunktiv*

Shart maylini o‘qitish uni o‘quvchilarga yetkazib berish jarayonda bir qator qiyinchiliklarga va fasilitatsiya holatlariga duch kelamiz. Ayniqsa ingliz tilidagi shart mayli ya’ni, shart ergash gapni qo‘shma gaplarda, fe’l zamonini chalkashtirib, yuborish haolatlari juda ko‘p uchraydi.

If I were - bunday hollarda ayniqsa, ya’ni I bilan (was) emas were qaysidir ma’noda ba’zi grammatik qonunlarga to‘g‘ri kelmaydi, degan xulosaga kelinishi mumkin. Buni oldini olish uchun grammatik materialni taqdimoti chog‘ida induktiv yoki deduktiv yo‘ldan boriladi. Induksiya paytida taqdimot misoldan boshlanib, mashg‘ulotlotga o‘tiladi. Masalan: shart maylini tushuntirishda avvallo uning o‘zbek tilidagi ko‘rinishi va ularni ingliz tili bilan qiyoslangan holda misollar beriladi. Chunki o‘z ona tilida hech narsa tushuntirib, bo‘lmas ekan, unga boshqa chet tilining o‘zlashtirib olishiga hech qanday asos bo‘lmaydi. Deduksiyada esa qoida berilib so‘ngra misollar moliq qilinadi. Birdan ziyod umumlashma, chiqarib xulosa qilib, grammatik hodisa, qoidasiz, leksika darajasida o‘rgatilaveradi.

Ko‘p qo‘llaniladigan grammatik hodisalarda ham yolg‘iz misol leksik tarzda beriladi. Lekin shart maylini o‘rgatishda yolg‘iz leksik miolgagina tayana olamiz. Bizga ko‘proq misollar, ya’ni o‘zingiz kundalik hayotingizda qo‘llaydigan gaplar bilan tushuntirsak mavzu o‘quvchi xotirasida tez qoladi. O‘quvchilarni yangi grammatik hodisa bilan tanishtirish yo‘llarining tanlashda qator metodik omillar hisobga olinadi.

1.Grammatik hodisaning tabiatiga bog‘liqlik omili shaklning o‘xshashligi, ma’noning oson yechimi kabilar deduktiv usul foydalanishni taqazo etadi.

Masalan: Shart mayli formalarining ingliz va o‘zbek tillarida bir xil ma’noning belgilab berishi ya’ni, shaklning to‘g‘rirog‘i ma’nosini bilib, olish osonligi induksiyani talab etadi.

Ona tili va chet tili hodisalari o‘rtasidagi mushtaraklik va tafovut omili mushtaraklik induksiyani tafovut, deduksiyani qo‘llashni shart qilib qo‘yadi.

3. Chet tilidagi to‘plangan tajribaga suyanish omili, fe’l zamonlarining yaxshi o‘zlashtirilishiga zamin bo‘la oladi.

Yangi hodisaning mikrobirikmalarini turli usulda o‘rganish omili. Masalan: fe’l kategoriyalarining yasalishi, ma’nosi induksiyada qo‘llanishi deduksiyada yoki aksincha, taqdim etilishi mumkin. Shart maylini o‘rgatishda yuqorida aytib o‘tilgganimizdek, bir qator qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ayniqsa, o‘quvchilarga mavzuni tushuntirish chog‘ida, chunki har ikki til ya’ni, ingliz va o‘zbek tillari birinchidan bir til oilasiga kirmaydi va tillarda farq kuchli demoqchimanki, grammatik qurilmalar ba’zan bir tildagi qoida ikkinchi biriga uiuian to‘g‘ri kelmay qoladi. Bularning birisi chet tilida 5 ta ingliz tilida esa 3 ta mayl bor. O‘zbek tilidagi qolgan 2 mayl qanday shart istak deb beriladimi kabi savol tug‘iladi. Bularning o‘quvchilarga tushuntirish uchun o‘qituvchidan katta mahorat talab qilinadi. Bizda qiyin bo‘ladigani shart maylini ergashgan qo‘shma gaplarda uchratamiz, ya’ni o‘zbek tilidagi shart mayli ingliz tilidagi shart maylidan tubdan farq qiladi. Shu farqlarni o‘quvchilarga farqlarni chalkashtirib yubormasdann tushuntirish zarur.

Fasilitatsiyaga kelsak, bu o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida yangilik yaratishdir. O‘quvchilarga qanday yangilik yaratish mumkin?

Mavzuni o‘rgatishda ularga yengillik yaratish ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ham mumkin, lekin ko‘proq misollar bilan beriladi. O‘quvchilarga misol berayotganda ularga kundalik hayotda ishlatiladigan gaplardan foydalanish mumkin va ularga ancha bo‘lsada yengillik beradi.

Darslaringni o‘z vaqtida qilsang, o‘zing istagandek , bahoingni olasan.

If the were not crazy he would take into account her wish.

Interferensiyasi, fasilitatsiyalarda ularni yengib, o‘tishda o‘quvchilarga beriladigan mashqlarning o‘rni ham katadir. Asosan qanday mashqlar, umuman til, nutq mashqlari, ya’ni shart mayli mavzusini o‘rgatishda samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Taqdim etilgan grammatik hodislar chet tilida ko‘nikmaga aylantirish uchun mashq qilish davri boshlanadi. Avvalo, ko‘nikma haqida qisqacha metodik izoh: grammatik ko‘nikma deganda, nutqda morfologik, sintaktik hodisalarni to‘g‘ri va avtomatlashgan tarzda qo‘lashni va tanib olishni ta’minlovchi operatsiyalar va

amallar tushuniladi. Morfologik koʻnikmada shakllar yasalishi va qoʻllanilishi operatsiya va amallari toʻgʻrisida gap boradi. Sintaktik koʻnikmaga esa¸szoʻ tartibi, soʻz birikmalari yasalshi kiradi. Grammatik materialning qoʻllanish koʻnikmasiga soʻzlarni oʻzgartirish va soʻzlarni qoʻyish kiritiladi. Shart mayli mavzusini oʻrganishda saradorlikni ta'minlovchi til va nutq mashqlari. Oʻquvchilar oʻzlashtirishni boshlagan grammatik hodisalar mashq qilish yoʻli bilan ularning nutq faoliyatiga kiritiladi. Bu davrda sof chet tiliga tabiiy nutq haqida gap yoʻq, balkioʻquv nutqi, tabiiy nuqtga taqlid qilish mashqlari bajariladi.

Oʻquvchilarning nutq koʻnikmalari shakllanishi chogʻida grammatik hodisalarni muhrlash jarayonida yuz beradi. Mashq qilish bosqichi asosan 3 qismni tashkil qiladi.

1. Grammatik hodisalarni taqlidiy aytishni oʻrgatish. Har qanday grammatik amal oʻzining andozaga suyanishi bilan chegaralanadi. Taqlidiy mashq qilish keyingi qismga ulanib ketadi.

2. Tpqlidiy oʻrganilgan hodisa tarkibida oʻzlashtirishlar sodir etib mashq qilish boshlanadi. Tanish materiallar, imkoniyat koʻtarishga qarab, yangi grammatik hodisani puxta oʻzlashtirishga xizmat qildiradi.

3. Odin oʻrganishga va bugun taqdim etilgan grammatik hodisalar birgalikda ogʻzaki va yozma nutq fikrini bayon etish uchun qoʻllaniladi. Oʻqishni egallashda grammatik quyidagi tartibda mashq qilish mumkin:

1) Matnda gramatik hodisani tanlab olish, yasalashi hodisalarini ham aytib berish mumkin.

2) Grammatik hodisani taxminlab bilish imkoniyati mavjud.

3) Oʻxshash grammatik hodisalarni farqlash matnni oʻqib, toʻgʻri va notoʻgʻri fe'llarni koʻchirish, turli jumlalardashgg fe'l kategoriyalarini ifodalanishini koʻrib chiqish kabilar.

4) Oʻrganilayotgan grammatik hodisa oʻqilayotgan matnni tushunishga imkon yaratadi. Masalan: Matnni oʻqing va gaplarda shart maylini ifodalovchi vositalarga e'tibor bering va ushbu vositalar yordamida oʻzingiz gaplar tuzinglar!

Ogʻzaki mashq qilish: 1) taqlidan aytish: siz ham xuddi shunday qilishingizni ayting masalan muallim:If I were you. I would study well. Oʻquvchi If I were you, I would teach well.

2) Oʻrin almashtirish

3)Aytilganni oʻzgartirish, savolga javob qaytarish, savol berish, fikrga qoʻshilish yoki e'tiroz bildirish. Mashq qilishning ushbu turi darak va soʻroq, boʻlishli va boʻlishsiz gaplarni oʻrganishda qoʻl keladi.

Bosma matnga tayanib mashq qilish.

1) Ovoz chiqarib o'qish. O'qiyotganda mayyan grammatik hodisani qo'llanishiga oid qo'shimcha topshiriq bajariladi.

2). Almashtirish namunadan yoki biror qismi almashtiriladigan jadvaldan foydalanib, gaplar tuzish, o'qish va jadval yordamida savollarga javob qaytarish. Zaruriy gramatik hodisani qo'llash muallim tomonidlan qo'shimcha topshiriq sifatida tavsiya etiladi.

3) O'qilgan narsani o'zgaritirib aytish darslikdagi savollarga javob topish berilgan javoblarga savol tuzish.

4) O'qib tahlil qilish, tinglash va solishtirish, rasmga qarab va berilgan grammatik hodisani ishlatilishini izohlash.

Grammatikaning qo'lanish borasida gap ketganda, shart maylini reproduktiv nutqda qo'lay bilash va resetiv nutqda tanib olish tushuniladi, bunda qo'llash va qo'llanganni faxmlash nazarda tutiladi. Qo'llanish bosqichida o'quvchi grammatik birlikdan fikr bayon etish va o'zganing fikrini tushunish maqsadida foydalaniladi. Grammatik ko'nikmaning nutqiy malakaga to'la singib ketishi tushuniladi. Malaka darajasi odatda, e'tibor nutqning mazmuniga qaratiladi. Til materili jumladan, grammatika haqida so'z yuritganda esa, taqdimot va mashq qilish davridagi faoliyati nazarda tutiladi. Bir qator uslubiy prinsiplar:

1. Grammatik shakllantirish prinsipi. Grammatik mexanizmlarni shakllantirishni egallashda nutq faolitining avtomatlashgan tarkibiy qismlari bo'lishi grammatik ko'nikmalar alohida o'rin tutadi. Grammatik ko'nikmalar og'zaki, yozma nutqning reproduktiv va reseptiv ko'nikmalari tarzida shaklanadi. Grammatik ko'nikmalarni hosil qilishda umuman ko'nimalarni rivojlvntirishning ya'ni amallarni bajarish mashqlari zarurligi, ko'nikmalarni avtomatlashganini ularni faoliyat tarkibiga kiritish interferensiya va tranpozisiyalar kabilar hisobga olinadi.

2. Kommunikativ yo'nalgan prinsip

a) grammatik ko'nikma nutq faoliyati turlarining tarkibida o'zlashtiriladi.

b) ko'nikmani hosil qilishning dastlabki bosqichidagina maxsus grammatik mashq rejalashtiriladi.

3. Grammatikani amaliy o'rganish prinsipi og'zaki yoki yozma nutq uchun zarur va shu bilan birga yetarli hodislargina o'rganiladi. Til o'rganuvchi tegishli mashqlarda grammatik mashqlarni egallaydi.

4. Grammatikani strukturada o'rgatish prinsipida chet tili grammatik birliklari avval aytib o'tilgandek nutq namunasida taqdim etiladi va mashq qilinadi.

Shartli mayl mavzusini o'rganishda til va nutq mashqlari.

I Use your own ideas to complete the sentences.

1) I'd feel very angry if …
2) If I didn't go to work yesterday …
3) Would you go to the party if …
II Put the verb in to the correct form.
1) If I know(knew) this number I would phone him
2) I … that coat If I were you. (not, buy)
3) I … you if I could but I'm afraid I can't (keep)
4) We … c car if we … in the country (need, live)
III Write the sentence with if … for each situation
1) We don't visit you very often because you live so far away
If you didn't live so far away we'd visit you more often
2) He doesn't speak very clearly that's why people don't understand him.
3) It's raining so, we can't have lunch in the garden.
4) I have to work tomorrow evening so I can't meet you
IV Write a sentence with if for each situation.
1) I was not hungry, so I didn't eat anything.
2) I was able to buy a car one because him let the money
3) You didn't have any breakfast that's why you're hungry now.

V Imagine that you are in these situations. For each situation write a sentence with I wish.

1) You're eaten too much and how you feel sick. You say I wish I had not eaten so much.

2) You have painted the gate red. Now you think that it doesn't look very nice.

VI Complete the sentences using would one of the following verbs in the correct form do, stop, enjoy, phone.

1) They helped me a lot. I don't know what I would have done without their help.
2) You should go and see the film. You … it.
3) I was in a hurry when I saw you otherwise I … to talk.
4) I … you last night I didn't have your number.

Shart maylini o'quvchilarga o'qitishda interfaol o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir. An'anaviy darslardan farqli o'laroq, interfaol o'yinlar yordamida mavzuni tushuntirish oson kechadi. Misol uchun oddiy gapni shart mayliga o'zgartirish.

| | |
|---|---|
| I want to be a doctor. After being a doctor I treat some patients. | If I were a doctor I'd treat patients. |

I am going to buy a car but I have not enough money. — If I had enough money I'd buy a car.

Yesterday my friend invited me to his house. I was very busy. I couldn't visit him. — If I had had enough time yesterday I'd have visited him

Yesterday I slept very late. Now I'm hardlyawake. — If I had slept earlier I'd not be so drowsy now.

My friend said his car was broken down. I told him the address of a master.But he had no time. — If you had gone to the master, he would have repaired it.

Last year I didn't studied well. I couldn't pass theentrance exams. Now I'm going to learn the subjects well. I hope I can shall be able to pass the exams. — If I had studied well I would have passed the entrance exams.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T.: O'qituvchi, 1973.
2. Bo'ronov J.B. Ingliz tili grammatikasi T.:O'qituvchi, 1973.
3. G'apporov M. Ingliz tili grammatikasi. T.: Turon – Iqbol, 2006.
4. KaushanskayaV. Practical Grammar of the English language."Prosvesheniye", 1971.
5. Kachalova K.N., IzrailovichYe.Ye. Prakticheskayagrammatikaangliyskogoyazыka. Bishkek: Turkistan, 2007
6. Nurmonov A.N. O'zbektilinazariy grammatikasi.T., «Fan»,1998
7. Nurmonov A.N. Hozirgizamono'zbekadabiytilidantablisalar.Andijon, 1985.
8. Nurmonov A.N., Iskandarova Sh. Tilshunosliknazariyasi. T., «Fan», 2008.